

NAZMIY VA NASRIY ASARLARNI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni va 8-sinf adabiyot darsligidagi nazmiy va nasriy asarlarni o'rganishda interfaol metodlarning samarali usullarini qo'llash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asarlar, so'z va nutq, mustaqil fikrlash, ijod qilish

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПОЭЗИИ И ПРОЗЫ

Мейликулова Манзура Абдуллаевна

Термезский университет экономики и сервиса

Доктор философии (PhD) педагогических наук

Аннотация: В данной статье рассматривается роль литературных произведений в формировании речевой компетенции учащихся и эффективное использование интерактивных методов при изучении литературных произведений и прозы в учебнике литературы для 8-го класса.

Ключевые слова: литературные произведения, слово и речь, самостоятельное мышление, творчество.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE STUDY OF POETRY AND PROSE

Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Termez University of Economics and Service

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation: This article discusses the role of works of art in the formation of students' verbal competence and the use of effective methods of interactive methods in the study of poetry and prose in the 8th grade literature textbook.

Key words: Works of art, words and speech, independent thinking, creativity

O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalombor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi. Mana shunday ulkan va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda jonkuyar va fidoyi adiblarimiz o'zbek adabiyotining muqaddas an'alariga sadoqatli bo'lib, ularni munosib davom ettirgan holda ijod qiladilar va yangi-yangi go'zal asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar. Agar bolalar fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar¹. Ana shu go'zal asarlarni o'quvchilarga yetkazish, asar va uning mohiyati bilan tanishtirish, asar orqali o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash esa bugungi kun fan o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshharuvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z

fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Innovatsiya (inglizcha-innovation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar

kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy interfaol metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.² Interfaol ("Inter"-o'zaro, "act"-harakat qilmoq)-o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

-o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etadi;

-o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikini ta'minlashi; -o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

-o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga, bir-birini fikrini hurmat qilishga va mas'uliyatga chorlovchi bir nechta interfaol o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars davomida darsning muvaffaqiyatli samarasiga erishish uchun aynan bir manbadan olingan metodlarni qo'llashga o'qituvchi majbur emas. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar

pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi deyilayapti. Ammo o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari darsda tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qituvchi o'zi iqtidori bilan o'ylab topgan har qanday metod, agar u mavzuni tez va oson tushunib yetishi va har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olishi, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olishlari, o'zlariga guruhga, guruh esa ularga baho bera olishi, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bera olishining barchasi – o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Ya'ni har qanday pedagogik texnologiyani qo'llashda aynan AKT vositalaridan foydalanish shart emas.

Bundan tashqari, nasriy asarlarni o'rganish, taqlil qilishda esa adabiyot darslarida FSMU texnologiyasini qo'llash qam o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini qimoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq qolda baqslashishga, baqs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni taqlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baqolashga o'rgatadi. Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisiga ma'lumki, FSMU metodining umumiy sxemasi

F-fikringizni bayon eting

S-fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating

M-ko'rsatilgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring, (F-fikr, S-sabab, M-munosabat,U-umumlashma.)

Ushbu metodni 8-sinf adabiyot darsligidagi Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasini tahlil qilishda qo'llash mumkin. Bunda sinfdagi o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Guruhlarga Inod nima uchun o'zi yaxshi ko'rgan, ardoqlagan otini o'z qo'li bilan otib tashladi degan mazmundagi "Inod nega o'z otini nobud qildi" degan topshiriq beriladi va FSMU texnologiyasiga ko'ra ushbu topshiriqni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt berilishi kerakligi aytiladi.

Guruhlar o'z fikrlarini qoqozga tushiradilar. Guruh a'zolaridan vakil chiqib, har bir bosqich bo'yicha yozilgan ma'lumotni aloqida-alloqida o'qiydi. Jumladan, guruhlardan biri quyidagicha javob beradi.

F-hikoya muqaddimasi va oxirida alohida ta'kidlanganidek, Inodning hech narsaga alishmaydigan boyliklari-ko'ngil mulki bor. Qishlog'i, maktabi hamda

qorabayir oti. U otasidan juda erta ayrilgan, xotini va farzandlaridan fojeali tarzda ayrilgan bo'lsa-da, judolik taftini bosib turadigan qishlog'i, maktabi hamda qorabayir oti unga madad. Garchi tog' qishloqlarining katta-qichik bolalariga muallimlik qilsada, tabiatan sodda va ishonuvchan Inod chiroyli gaplardan, kitobiy so'zlardan nihoyatda yiroq. Hikoyadagi voqealar tog'da bo'lib o'tadi. Tog' yonbag'irlariga qarashli bo'lgan rayondagi partiya komitetining o'zimiz tog'lik bo'lib turib nega qimizni o'zimiz ishlab chiqarmaymiz degan mulohazasi sabab, yangi bir sovxoz tashkil etishga qaror qilgan va aholining ortiqcha baytallarini sotib olish uchun tashkilotlardan joylarga vakil jo'natilgan vaqti edi. Barcha voqealar shundan keyin tus oladi. Hikoya qahramoni Inod o'zi yaxshi ko'rgan otini o'z qo'llari bilan otib tashladi.

S – aslida ot Inodga juda qadrli, uzoq yili Inodning bor-yo'q ikki farzandi beda solingan bostirmaga tuynukdan kirib, gugurt o'ynab tutun-u olov bosgan xonadan chiqolmay vafot etganida shu ot unga dalda bo'lgan edi. Shu fojeadan keyin darsdan bo'sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo'lib qoladi. (Yozuvchi o'z asarida “bor-yo'q ikki farzand” deydi. Chunki, u yillari onalarning sakkiztalab, o'ntalab farzandi bo'lgan.) Uni ham olib ketsa u bu dunyoda yana yolg'iz qolib ketishini o'yladi. U otni olib ketish uchun kelgan Egamberdiga “...Men baribir otimni bermayman. U menga...juda qarddon bo'lib qolgan...Otni bersam kunim qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Otam er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot...mening og'ir kunimga yaradi” - deydi. Inod tabiatan sodda, ishonuvchan edi. Hatto Egamberdining gapi rost yoki yolg'onligini ham surishtirmaydi. Aslida, tegishli idoralarga borib surishtirsa bo'lar edi. U o'zicha davlatni odami aldamaydi. Davlat bu odamlarga vazifani, “shapka” va “pogonni” berib qo'yibdimi, ular aldashlari mumkin emas, deya o'ylaydi. Inod kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdievga kelishuv taklif qiladi. Ya'ni unga: “Menda bir soqin sigir bor, shuni ola keting, o'zingizga...Lekin shu ot menda qolsin-a”, - deydi. Egamberdining bu poraxo'rlikku, degan gapiga, bilaman, lekin sizning ko'nglingizni olay deymanda, men otni rayonga yo'latmayman, hov toqqa tanishlarimga berib qo'yaman, hech kim ko'rmaydi, deb aytadi. Egamberdining ko'nglidan hozir sigirning ustiga yana o'n bosh qo'y so'rasam ham beradi degan fikr ham o'tdi. Egamberdi Inoddan u beradigan sigirni Eshmat podachining podasiga qo'shib qo'yishini tayinlab, o'zi ketdi... Voqealar rivojida Egamberdining shu bilan ko'ngli tinchimay, yana Inodning qoshida paydo bo'lishi, baribir shu otga egalik qilish nafs, Inodning esa uni keyinchalik sog'inib qolishi, otini bor bo'lib turib ko'ra olmaslikdagi sog'inch tuyg'usi qorabayir otning o'z egasi tomonidan otib tashlanishiga olib keladi.

M- asar qahramonining soddaligi, rahmdilligi, uning ishonuvchanligi mana shunday ayanchli voqea sodir bo'lishiga olib keldi. Egamberdi o'z manfaati yo'lida ishlatgan asosiy omil ham ayni shu. Ya'ni Inodning Egamberdi va u singari kimsalarni ham o'zidek odam deb ishonishida. Agar Inod qorabayirni Egamberdiga berib yuborsa, o'zi har kuni so'zsiz dardlashadigan, aytilganidek, otasidan yodgor, og'ir kunlarida yaragan birodarini birovning qo'lga tutqazib yuborsa...keyin nima bo'lardi. har kun emas, har soat, har daqiqa uni ko'rmoqni, yolini siypalamoqni, ko'zlariga tikilib o'tirmoqni qo'msarmidi-yo'qmi? Uni tirik ekanini bilsa-da, lekin qayerda, kimning qo'lida, ne ahvolga tushganini o'ylarmidi. Oradan oylar, yillar o'tar ekan, noma'lum manzilga olib ketilgan otini o'lik yoki tirikligini bilmay, bilolmay, o'zi har kuni ming o'lib, ming tirilarmidi?

U-hikoyada Egamberdi otdan voz kechishdek fojeali holatda ham uning qat'iyati, qaysarligi, cho'rtkesarligi yana bir bor namoyon bo'ldi. U o'zining ko'ngil boyligini boshqalar ixtiyoriga, dargumon taqdirga topshirishdan ko'ra, uni, jonsiz holda bo'lsa-da, yonida qolishini istadi. Shunda u har kuni uni yoqlab borishi, sog'inganda topishi, ruhan dardlashishi mumkin bo'ladi. Shu tariqa guruhlar o'z talqinicha, o'z fikriga ega bo'lish huquqidan foydalangan holda hikoyani taqlil qilib, mavzuni o'zlashtirib olishga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. (ta'lim muassasalari pedagog o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar) Toshkent-2008
(www.sadikov.uz)
2. I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent- "O'zbekiston"-2009)
3. 8-sinf adabiyot darsligi. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2019 yil;